TOSHKENT VILOYATI OHANGARON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 21-oktabr | 326-10-134-Q/24 | Ohangaron tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining “O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi (2020-yil 642-son, 39-modda), O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning (O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2020-yil 641-son 43-modda;) 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023- yil 21-dekabrdagi PQ-401-son qarorining 8.2-bandi,O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5-dekabrdagi 965-sonli qaror bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi Nizomga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asoslanib ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2025-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5- dekabrdagi 965-sonli qarorining 2 – bob, 6 – bandida ish o‘rinlarining belgilanadigan eng kam sonining jami soni tuman hokimining qaroriga muvofiq tashkilotning ro‘yxatidagi xodimlari o‘rtacha soni 147 kishini tashkil etadigan 10 foizgacha miqdorda, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 27,2 foiz (40 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 47,6 foiz (70 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 4,8 foiz (7 kishi);

nogironlar uchun 4,1 foiz (6 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 5,4 foiz (8 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 5,4 foiz (8 kishi);

atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 0 foiz (0 kishi);

odam savdosida jabrlangan shaxslar uchun 0 foiz (0 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun 5,4 foiz (8 kishi).

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan korxona, tashkilot, muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil yakunlaridan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi, 2025-yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimida ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 20-avgustdagi 186-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band qilib qo‘yishini) hamda ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi yo‘llanmasi bilan yuborilgan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar”ni asosiy ish o‘rinlariga ishga qabul qilinsinlar.

6. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda korxona va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomining 15-bandiga muvofiq jarima solish sabab bo‘lishi eslatilsin.

7. Ohangaron tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.Abbazov)ga O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B sonli (Adliya vazirligi tomonidan №3163-son bilan 31.05.2019-yilda ro‘yxatga olingan) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilgan, Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida eng kam oylik ish haqining 2 barobari miqdorida haq to‘lash ishlarini tashkil etsin.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son qaroriga asosan tuman hokimi o‘rinbosari Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i (S.Dexkanova) va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.Abbazov)ga tumanda oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar toifasidagi xotin-qizlarni kasbga o‘qitish va ularning bandligini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

9. Mazkur qaror besh kun muddatda kvota ish o‘rinlari belgilangan korxona tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazish yuklatilsin.

10. Ohangaron tuman hokimining 2023-yil 27-oktyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 324-10-134-Q/23-sonli qarori 2024-yilning 31-dekabridan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Ushbu qaror ijrosini bajarilishi ustidan nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Azamatovga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.M.Madirimov**

Ohangaron tuman hokimining
2024-yil 21-oktabrdagi
326-10-134-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ohangaron tumanidagi (shahridagi) tashkilotlar bo‘yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda q bozorida teng shartlarda raqobat qila olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini belgila

MA’LUMOT

№	Hudud nomi	Korxona va tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Jami band qilingan ish o‘rinlari soni	14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jaz o‘ta muas lari yo sudn qaro ko‘ tibl tusd majbu chor qo‘lla n sha uch

1	Ohangaron tumani	Ohangaron tumani Obodonlashtirish bo'limi	207061230	252	12	3	1		2	3	2
2	Ohangaron tumani	YANGI ANGREN ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI aksiyadorlik jamiyati	200595838	1 697	12	1	8	2	1		
3	Ohangaron tumani	Ohangaron tuman tibbiyot birlashmasi	200609524	1167	31	8	16		2	2	
4	Ohangaron tumani	Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "ANGREN SHAKAR" xorijiy korxonasi	207155445	780	9		7	2			
5	Ohangaron tumani	"EYVALEK MAXSUS TEMIR BETON" aksiyadorlik jamiyati	200608454	743	16	2	8	2		2	1
6	Ohangaron tumani	"LAZIZ" ma‘suliyati cheklangan jamiyati	201321805	199	9	2	3	1			2

7	Ohangaron tumani	Toshkent Viloyati Fiziterapiya va Pulmonologiya Shifoxonasi	206965103	264	5	3	1		1		
8	Ohangaron tumani	Toshkent "Suv ta'minoti" AJ Ohangaron tuman filiali	201577953	105	5		5				
9	Ohangaron tumani	IP OOO " KAND FAVORITE"	308959270	90	10	8					
10	Ohangaron tumani	Ohangaron tuman Yo'llardan foydalanish korxonasi	200608573	141	7	3				1	3
11	Ohangaron tumani	Ohangaron tuman "Veternariya va chorvachilikni rivojlantirish" bo'limi	200609438	35	3		3				
12	Ohangaron tumani	10-Umumiy o`rta ta'lim maktabi	206914553	95	3	1	2				
13	Ohangaron tumani	12-Umumiy o`rta ta'lim maktabi	206914577	84	2	1	1				
14	Ohangaron tumani	13-Umumiy o`rta ta'lim maktabi	206914584	45	1		1				

15	Ohangaron tumani	27-Umumiy o`rta ta'lim maktabi	206914728	98	2	1	1				
16	Ohangaron tumani	28-Umumiy o`rta ta'lim maktabi	206914735	55	1		1				
17	Ohangaron tumani	33-Umumiy o`rta ta'lim maktabi	206914782	67	1		1				
18	Ohangaron tumani	52-Umumiy o`rta ta'lim maktabi	206910733	114	3	1	2				
19	Ohangaron tumani	53-Umumiy o`rta ta'lim maktabi	310971916	33	2	1	1				
20	Ohangaron tumani	22-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	309241421	26	2	1	1				
21	Ohangaron tumani	27-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	309553089	33	1		1				
22	Ohangaron tumani	31-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	310972559	35	2	1	1				
23	Ohangaron tumani	33-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	310231482	33	2	1	1				
24	Ohangaron tumani	34-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	310972470	32	2	1	1				

25	Ohangaron tumani	35-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	311248863	20	1		1				
26	Ohangaron tumani	37-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	310008386	26	1		1				
27	Ohangaron tumani	38-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	310617199	24	2	1	1				
				6293	147	40	70	7	6	8	8